



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL O'QITISH USULLARINI QO'LLASH

Nasurlayeva Asolat Asadovna

Samarqand shahar maktabgacha va maktab ta'limi

bo'limi 53-umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15331338>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 25- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 30- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

Boshlang'ich sinf, matematika, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, o'quvchi faolligi, dars samaradorligi, soyabon metodi, aqliy hujum, assesment texnikasi, mustaqil fikrlash, guruhda ishlash, geometrik shakllar, vizual metod, ta'lim sifati.

ABSTRACT

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol o'qitish usullarining ahamiyati, ularni dars jarayonida samarali qo'llash yo'llari va natijalari tahlil etilgan. Tadqiqotda interfaol metodlar orqali o'quvchilarning matematik bilimlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashga undash va mavzuni chuqurroq anglashiga erishish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, amaliy misollar asosida interfaol o'yinlar, savol-javoblar, guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish kabi usullarning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 23-avgustdagi videoselektor yig'ilishida bildirgan fikrlariga ko'ra, "Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak"¹. Davlatimiz rahbari, shuningdek, xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasini oshirish va jamiyatdagi nufuzini kuchaytirish, yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish zarurligini ta'kidlaganlar. Barchamizga ma'lumki, Yangi O'zbekistonning boshlanishi maktabdan boshlanadi. Maktabning asosiy poydevori esa pedagoglar va o'qituvchi xodimlardir. O'qituvchining talabchan va adolatli bo'lishi ta'lim-tarbiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Bugungi kunda, zamonning tez o'zgarib borayotgan sharoitida, yoshlarni barkamol avlod sifatida tarbiyalash har bir pedagogning eng muhim vazifalaridan biridir. Shu bois, maktablardagi pedagoglar o'z vazifalarini bajarishda jonbozlik ko'rsatishlari kerak.

Bugungi kunda o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish maqsadida tajribali o'qituvchilar turli interfaol metodlar va didaktik o'yinlardan faol foydalanmoqdalar. Interfaol metodlar deganda ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan

metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi

shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Ushbu usullar dars sifatini yaxshilashga va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Asosiy mezonlarga – norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin ifodalash, mustaqil o'qish va o'rganish, seminarlar tashkil etish, o'quvchilarga tashabbus ko'rsatish imkoniyatlarini yaratish, kichik va katta guruhlar bilan ishlash, topshiriq va vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalar kiradi. Bunday darslarda barcha o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatiga ega bo'lib, fikr almashish jarayoni yuzaga keladi. Natijada, bolalarda bilim olishga bo'lgan qiziqish va havas ortadi, o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatlar o'sadi.

Boshlang'ich sinf darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish - bu o'quvchilarni faolligiga, erkin va mustaqil fikrlashga chorlaydi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda mustaqil ishlash ko'nikma va malakasi rivojlanadi. Ma'lumki, hozirki kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba - sinovlaridan o'tib, yaxshi natija bergan. Eng asosiylardan biri bu - kichik guruhlarda ishlash. Sinf o'quvchilari

guruhlarga bo'lingan holda ishlaydi, o'quv topshirig'i alohida bir o'quvchiga emas, balki barcha a'zolariga beriladi. Guruhlarning har bir a'zosi topshiriqni bajarishga o'z hissasini qo'shishga harakat qiladi.

Matematika darslarida interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o'tishi mumkin. Chunki, biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilar juda o'yinqaroq bo'lishadi. Shuning uchun ham darslarni rang-

barang metodlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol uchun, Taqqoslashga doir masalalar mavzusini tushuntirishda *"Soyabon metodi"* metodini qo'llash juda samarali va qulay hisoblanadi, chunki bu metod o'quvchilarni dars jarayonida faollashtirib, ularning o'zaro fikr almashish va bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. *Soyabon* metodida taqdim etilgan har bir bosqich, o'quvchilarga mavzu bo'yicha chuqurroq va kengroq tushuncha hosil qilishda, ularning mavzuga nisbatan qiziqishini oshirishda va o'z fikrlarini erkin ifodalashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu metod taqqoslashni nafaqat o'quvchilarning faolligini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

1-sinf matematika darsligida Quyosh atrofida aylanadigan sayyoralarni tartiblash mavjud shuni ko'rib o'tamiz:

Bizning maqsadimiz: O'quvchilar sayyoralarni ularning o'lchami bo'yicha kichikdan kattaga qarab tartiblashni o'rgatish hisoblanadi.

1. Soyabonning tutqichi (asosiy savol):

— Sayyoralar o'lchami bo'yicha qanchalik katta yoki kichik?

2. Soyabon tagidagi ma'lumot (matn): Quyosh atrofida aylanadigan sayyoralar:

Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun.

3. Soyabon ostidagi topshiriq:

— *Rasmga qarab, sayyoralarni o'lchami kichrayib borish tartibida yozing.*

Masalan: Yupiter, Saturn, Uran, Neptun, Yer, Venera, Mars, Merkuriy.

4. Natija : Sayyoralarni o'lchami orqali solishtirish mumkin, ular kattadan kichikka yoki kichikdan kattaga qarab tartiblanadi.



Bundan tashqari "Aqliy hujum" (*Brainstorming*) va "Assesment" texnikasi kabi metodlar ham mavjud. "Assesment" texnika baholash metodi ichida usul sifatida qo'llaniladi. Texnika – mohirlik, ustalik degan ma'noni bildiradi. Demak, tinglovchilar o'z bilim, ko'nikma, malakalarini mohirlik bilan sinab, o'z-o'zlarini baholashlari, bir sinovdan o'tishlari mumkin. Assesment (inglizcha "assessment" – baho) – o'z-o'zini taqdimot qilish, ma'lum bir sinovdan o'tish deb belgilanadi.

Usulning mohiyati: Ushbu uslub, odatda (chorak yoki o'quv yili tugaganida), o'quv predmeti yoki bo'lim bo'yicha barcha mavzularni tinglovchilar tomonidan yodga olish, yoki biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq va vazifalarga mustaqil ravishda o'z munosabatlarini bildirish, shu orqali o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlariga tayanib, baholashlariga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha tinglovchilarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan bilimlari, ko'nikmalarini baholay olishga yo'naltirilgan.



Usulning maqsadi: Tinglovchilarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganligi va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, mustaqil ravishda o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatish.

Mashg'ulot uchun kerakli vositalar: Tarqatma materiallar (imkoni bo'lsa, bo'lmasa tinglovchilar o'z daftarlariga jadvalni chizib olishlari), berilgan vazifa va topshiriqlarni o'qituvchi tomonidan eshittirib, javoblarini jadvalning kataklariga to'ldirishlari shart; jadval uchun topshiriqlar; qalam (yoki ruchka); taqdimot slaydlar va boshqalar.

Dars mavzusi: *Geometrik shakllarni tanish va farqlash*

Topshiriq: *Quyidagi shakllarni nomlang va ularni boshqa shakllardan farqlang.*

Rasm	Bu qanday shakl ?	Bu shaklning xususiyati nima	Men bu shaklni tushundim (1,2,3 ball)

Topshiriqni o'tkazish tartibi:

1. O'qituvchi shakllarni slayd orqali ko'rsatadi yoki tarqatma materiallarda beriladi.
2. O'quvchilar shakl nomini yozadi, unga xos belgilarni aytadi (masalan, "4 teng tomoni bor", "burchaklari yo'q").
3. Oxirgi ustunda o'z tushunish darajasini baholaydi.

O'quvchilar uchun matematik mashg'ulotlarda turli interfaol metodlar, jumladan, shakllar bilan ishlashga oid topshiriqlardan foydalanish juda foydalidir. Avvalo, bu jarayon o'quvchilarning avval olgan bilimlarini takroran ko'rib chiqish, ularni amalda qo'llash imkonini yaratadi. Bu orqali ular o'z xatolarini anglab, to'g'rilashni, bilimlarini mustahkamlashni o'rganadilar. Ayniqsa, mashg'ulotlar davomida o'quvchilar mustaqil fikrlash va o'z ishlarini baholashga intiladi. Bu esa ularni mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy yondashuv va o'z-o'zini tahlil qilishga o'rgatadi. Shuningdek, bu jarayon davomida o'quvchilarning geometrik shakllar haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Ular shakllarni tanish, farqlash, nomlash hamda ularning xossalari tushunishga intiladilar. Shakllarni solishtirish va guruhlash orqali bolalarning mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. Ayniqsa, shakllarni chizish yoki amaliy topshiriqlarda ishlatish orqali ularning ijodiy qobiliyati ham ortadi. Natijada o'quvchilarda matematikaga nisbatan qiziqish kuchayadi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoq oshadi va dars jarayoni yanada samarali bo'ladi.

Hozirgi kunda keng qo'llanadigan usullar "INSERT", "Fikrlar daraxti", "Ko'rgazmali metod (vizual metod)", "Klaster", "Aqliy hujum", "Debat", "U kim Bu nima", "Xotira mashqi", "eslab qol", "Sirli sandiqcha", va boshqa usullardan foydalanib darsni tashkil etsa, dars mazmunli bo'ladi.

XULOSA:

Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol o'qitish usullarini qo'llash

o'quvchilarning faolligi, darsga bo'lgan qiziqishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Interfaol metodlar yordamida o'quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydilar, bilimlarini amaliyotda qo'llay oladilar, jamoada ishlash va o'z fikrini erkin ifodalashga o'rganadilar. "Soyabon metodi", "Aqliy hujum", "Assessment", "INSERT", "Klaster" kabi metodlardan foydalanish dars jarayonini yanada samarali, mazmunli va qiziqarli qiladi. Shunday qilib, interfaol metodlar orqali tashkil etilgan matematika darslari o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirib, ularni mustaqil hayotga tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. R. Ishmuxamedov, M. Yo'ldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.-2013.
2. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" T.-2017
3. R.Mavlonova, N.Voxidova va N.Raxmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" T.-2010
4. M.Ochilov, N.Ochilova "Oliy maktab pedagogikasi" T.-2008
5. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti // "Boshlang'ich ta'lim" jurnali № 5, 2005.
7. <http://insonhuquqlari.uz/oz>



**INNOVATIVE
ACADEMY**